

00  
**-sonli xizmat ko'rsatish  
SHARTNOMASI**

Toshkent shahri

2022-yil "8" IYUL

**Toshkent davlat yuridik universiteti** (keyingi o'rinlarda Ijrochi deb yuritiladi) nomidan "Bajaruvchi" deb yuritiladigan "POWER BUILD CONSTRUCTION" MChJ nomidan Ustav va AL000702 -sonli lisenziya asosida ish ko'ruvchi direktor A.I.Soliev bir tomondan, va Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb yuritiladi) nomidan 2020-yil 25-sentabrdagi 08-176-son asosida ish yurituvchi moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor A.A.Iminov, ikkinchi tomondan, alohida Taraf, birgalikda esa Taraflar deb yuritiluvchi, mazkur 00-sonli xizmat ko'rsatish Shartnomasini (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ijrochi Buyurtmachining texnik topshiriq va tanlash hujjatlariga muvofiq quyida ko'rsatib o'tilgan xizmatni (keyingi o'rinlarda Xizmat deb yuritiladi) ko'rsatadi, Buyurtmachi esa Ijrochiga Xizmatni ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, Xizmatni qabul qiladi va ko'rsatilgan Xizmat uchun mazkur Shartnomaga muvofiq haq to'laydi.

№	Nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Summasi	QQS	Summa
1	Universitetning Mustakillik ko'chasi 59 uyda joylashgan 4-o'quv binosining podval qismini kapital ta'mirlash uchun to'liq dizayn (550 kv.m) va loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish xizmati	xizmat	1	23 478 260	23 478 260.87	35 21 739.13	27 000 000
	jami						27 000 000

### II. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

2.1. Shartnomaning umumiy bahosi QQS bilan 27 000 000 (yigirma etti million) so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan Xizmat uchun to'lovlar naqd pulsiz shaklda Ijrochining hisob-raqamiga o'tkazib berish orqali amalga oshiriladi.

2.2. Buyurtmachi Ijrochi tomonidan ko'rsatilgan Xizmat uchun Shartnoma umumiy summasining 30 (o'ttiz) foizni tegishli g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 (besh) bank ish kunida naqdsiz hisob-kitoblar shaklida Ijrochining hisob-raqamiga oldindan to'laydi.

Shartnoma umumiy qiymatining qolgan 70 (yetmish) foiz miqdoridagi to'lovni tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng 5 (besh) bank ish kunida hisobvaraqa-faktura asosida Ijrochining hisob-raqamiga to'lab beradi.



### III. XIZMATNI KO'RSATISH TARTIBI

3.1. Ijrochi Xizmatni Shartnoma summasining 30 foizi o'tkazib berilgandan so'ng 10 kalendar kunida bajarilishini ta'minlaydi.

3.2. Xizmatni ko'rsatish muddati Taraflarning yozma kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin, ushbu Shartnomaning 4.1-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.3. Xizmat ko'rsatilganidan so'ng Ijrochi Buyurtmachiga hisobvaraqa-fakturani taqdim etadi va zaruratga ko'ra unga hisobot hujjatlarini ilova qilishi mumkin. Buyurtmachi mazkur hisobvaraqa-fakturani olgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kunida uni imzolab beradi yoki e'tirozi mavjud bo'lgan taqdirda imzolamasdan yozma talabnoma taqdim etadi.

3.4. Buyurtmachi hisobvaraqa-fakturani olgan vaqtdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida uni imzolab qaytarmagan yoki yozma talabnoma bermagan taqdirda Xizmat Buyurtmachi tomonidan e'tirozsiz qabul qilingan hisoblanadi.

3.5. Buyurtmachining talabi asosli deb topilgan taqdirda, Taraflar ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar va unda bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan Xizmat ro'yxati hamda ularni bajarish yoki bajarishni to'xtatish muddatlarini ko'rsatadilar.

Xizmat qisman ko'rsatilgan hollarda Buyurtmachi amalda ko'rsatilgan Xizmat uchun haq to'laydi.

3.6. Buyurtmachining aybi bilan Xizmatni ko'rsatish mumkin bo'lmay qolgan holatlarda Xizmat bahosi to'liq to'lanadi.

3.7. Xizmatni ko'rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo'qligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda Ijrochi bu haqda Buyurtmachini 5 (besh) ish kunida ish kunida xabardor qilishi va u bilan birgalikda zaruriy choralarni ko'rish shart.

### IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Ijrochining huquqlari:

– mazkur Shartnomaga muvofiq Xizmat ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini hamda Buyurtmachi tomonidan mazkur Shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlari bajarilishini talab qilish;

– Buyurtmachidan Shartnoma bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishni talab qilish.

4.2. Ijrochining majburiyatlari Shartnomada nazarda tutilgan Xizmatni o'z vaqtida va sifatli ko'rsatish hamda mazkur Shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarishdan iborat.

4.3. Buyurtmachining huquqlari:

– xizmat ko'rsatish turi va muddatini, xizmat ko'rsatish usullarini Ijrochining roziligi bilan o'zgartirish;

– Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomaga muvofiq sifatli xizmat ko'rsatilishini hamda Ijrochi tomonidan mazkur Shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlar bajarilishini talab qilish;

– Ijrochi tomonidan Shartnoma shartlari bir necha marta yoki bir marta qo'pol buzilgan taqdirda Shartnoma bo'yicha to'langan to'lovlarni to'liq qaytarishni va Shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilish.

4.4. Buyurtmachining majburiyatlari:

– Ijrochiga ko'rsatilgan Xizmat haqini o'z vaqtida to'lash;



– Ijrochining xizmat ko'rsatishi zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda mazkur Shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

## V. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

5.1. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilgan va Taraflar tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

Pandemiya sharoitida istisno tariqasida Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar o'zaro xat (shu jumladan elektron aloqa vositalari orqali) almashinuvi orqali ham kiritilishi mumkin.

5.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga Taraflarning kelishuviga muvofiq yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

5.3. Buyurtmachi ushbu Shartnoma bekor qilinishi tufayli Ijrochiga yetkazilgan zararni to'liq qoplash sharti bilan mazkur Shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

5.4. Shartnomani bekor qilish qaroriga kelgan Taraf ikkinchi Tarafga 10 (o'n) kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

## VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH

6.1. Taraflar majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"dagi Qonunida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2. Taraflar Shartnomani ijro etish yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolarni o'zaro muzokaralar va talabnoma yuborish yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

6.3. Taraflar nizo yuzasidan kelishuvga erishmagan hollarda nizo Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

**6.4. Taraflar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-ilovaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy shartlarni bajarishni o'z zimmalariga oladilar.**

## VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Mazkur Shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) natijasida vujudga kelganda Taraflar o'z majburiyatlarini bajarishdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

7.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major)ga Davlat boshqaruv organlarining hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlar va talablarni bajarish, taraflarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (pandemiya, zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

7.3. Taraflarning qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi Tarafga 30 (o'ttiz) kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

7.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar



yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 90 (to'qson) kundan ortiq davom etsa, Taraflar tashabbusiga binoan Shartnoma bekor qilinishi mumkin.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA NUSXALARI

8.1. Mazkur Shartnoma tegishli g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha 2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.

8.2. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, har bir Tarafga bir nusxadan beriladi.

8.3. Ushbu Shartnoma bilan nazarda tutilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"dagi Qonuni bilan tartibga solinadi.

## IX. TARAFLARNING REKVIZITLARI:

**Buyurtmachi:**

**Ijrochi:**

**Toshkent davlat  
yuridik universiteti**

**"POWER BUIL CONSTRUCTION"  
MCHJ**

**100047, Toshkent shahri, Sayilgoh  
ko'chasi, 35-uy  
O'zbekiston Moliya Vazirligi  
G'aznachiligi  
H/r 2340 2000 3001 0000 1010  
STIR:201122919  
XKKM MB Toshkent. Sh MFO 00014  
Sh/r 400910860262667094100009002  
STIR:201 122 349 OKONX: 92110**

**100016 Toshkent sh., Yshnobod tumani  
Elbek ko'chasi, 24/1. uy  
tel. 97 464-02-61  
h/r 2020 8000 5007 1123 3001  
"MILLIY BANK" Bektimir filiali  
MFO: 00930  
STIR: 304 546 013  
OKED: 71110**

**Prorektor**

**A.A.Iminov**

**Direktor**

**Soliyev A.I.**



*D. M. Soliyev*



2022-yil "8" iyul dagi  
1-sonli xizmat ko'rsatish  
Shartnomasiga  
ILOVA

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha  
ASOSIY SHARTLAR**


1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Toshkent davlat yuridik universiteti xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Taraf Toshkent davlat yuridik universiteti xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

"1008" ishonch telefoni;  
Telegram-kanali («@anticorbot»);  
Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl  
yoki elektron pochta.

Izoh: Shartnomadagi ushbu shartlar "yarim qora" shriftda bayon etiladi.

**Ijrochi:**



A.I.Soliyev

**Buyurtmachi:**

**Toshkent davlat  
yuridik universiteti**

Prorektor

A.A.Iminov



Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган. Ҳужжат коди: ADM20741

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI**  
**PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI**  
**RAHBARI**

NAZORAT

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Раиси Т.К.Нарбаевага  
Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси Спикери Н.М.Исмоиловга  
Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н.Ариповга  
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси  
(А.А.Абдувахитов, Р.А.Гулямов, Б.М.Мавлоновга)  
Вазирлар Маҳкамаси (Ж.А.Қўчқоров, А.А.Абдухакимовга)  
Ҳисоб палатаси (Б.Т.Турабовга)  
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (А.Х.Тошқуловга)  
Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва Вазирлар  
Кенгаши Раислари, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларига  
Вазирликлар ва идоралар раҳбарларига (рўйхат бўйича)

Олий таълим муассасалари талабалари бандлигини таъминлаш бўйича устувор вазифаларни белгилаш тўғрисида жорий йил 4 март куни ўтказилган видеоселектор йиғилиши Баёни тўғрисида **Давлат Раҳбарига ахборот берилди.**

Вазирликлар, идоралар, маҳаллий ҳокимликлар раҳбарлари Баён топшириқларининг ўз муддатида ва сифатли ижросини таъминлаш, олий таълим муассасалари талабалари бандлигини таъминлаш масалаларини самарали ташкил этиш учун **шахсан масъул эканликлари кўрсатиб ўтилди.**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси (А.Абдувахитов), Вазирлар Маҳкамаси ва Ҳисоб палатаси раҳбариятига Баён топшириқлари бажарилишини шахсан назоратга олиб, ижрочи вазирликлар, идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, Тошкент шаҳар, вилоятлар, туман (шаҳар)лар ҳокимликлари раҳбарлари иштирокида **мунтазам равишда муҳокама қилиш ҳамда натижаси бўйича ҳар чорақда ахборот киритиб бориш топширилди.**

А.Абдувахитов, А.Рахмоновга – назорат



З.Низомиддинов

2022 йил “10” март  
№ 02-РА 1-3416



Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев раҳбарлигида  
2022 йил 4 март куни ўтказилган видеоселектор йиғилишининг  
19 - сонли БАЁНИ

Раислик қилувчи: Ш.М. Мирзиёев – Ўзбекистон Республикаси  
Президенти

Қатнашганлар: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Раиси,  
Қонунчилик палатаси Спикери, Ўзбекистон Республикаси  
Бош вазири, Ўзбекистон Республикаси Президенти  
Администрацияси раҳбари, Ўзбекистон Республикаси  
Президенти маслаҳатчилари ва уларнинг ўринбосарлари, Бош  
вазир ўринбосарлари, вазирликлар ва идоралар раҳбарлари,  
Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва  
Вазирлар Кенгаши Раислари, Тошкент шаҳри, вилоятлар ва  
туман (шаҳар)лар ҳокимлари (рўйхат бўйича)

**КУН ТАРТИБИ:**

**Олий таълим муассасалари талабалари бандлигини таъминлаш бўйича  
устувор вазифаларни белгилаш тўғрисида**

(Мирзиёев, Арипов, Тошқулов, Артикходжаев, Абдурахмонов, Бозаров, Сафаев,  
Абдурахмонов, Шадманов, Маджидов, Мирзиёев)

Мамлакатимизда сўнгги йилларда барча соҳалар қатори олий таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар, энг аввало, замон талабларига мос малакали кадрларни тайёрлаш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳага рақобатбардош мутахассисларни етказиб бериш, бу орқали иқтисодий тараққиёт ва ижтимоий фаровонликни таъминлашга йўналтирилган.

Шу билан бир қаторда бугунги кунда олийгоҳлар талабалари бандлигини таъминлаш ҳам устувор вазифалардан бири ҳисобланади.

Ҳозирги кунда олий таълим муассасаларида **510 минг нафар** талаба кундузги таълим шаклида таҳсил олмоқда (*жами 820 минг нафар*).

Ўтказилган сўровномалар натижасида **100 минг нафарга** яқин талаба томонидан ишлаш ва **қўшимча даромад** топишга эҳтиёж борлиги билдирилган.



Муҳокама қилинган масалалар юзасидан мажлис **қарор қилади:**

1. Қуйидагилар:

Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Арипов раислигида **Талабалар ижтимоий шароитини яхшилаш ва бандлигини таъминлаш бўйича Республика комиссияси** (кейинги ўринларда – Республика комиссияси) таркиби 1-иловага мувофиқ;

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари раислигида **Талабалар ижтимоий шароитини яхшилаш ва бандлигини таъминлаш бўйича ҳудудий комиссияларнинг** (кейинги ўринларда – Ҳудудий комиссия) намунавий таркиби 2-иловага мувофиқ;

**Олий таълим муассасалари талабалари бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари бўйича “йўл харитаси”** 3-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилансинки:

а) **Республика комиссияси (А.Арипов):**

**бир ҳафта** муддатда таълим йўналишлари ва ихтисосликларидан келиб чиқиб, олий таълим муассасаларини тегишли вазирликлар, идоралар ва хўжалик бошқаруви органларига бириктиради;

Ҳудудий комиссиялар фаолиятини, шу жумладан олий таълим муассасалари талабаларининг ижтимоий шароитини яхшилаш ва бандлигини таъминлаш бўйича ишларни мувофиқлаштириб боради;

талабалар турар жойларини барпо этиш ва жиҳозлаш юзасидан асосланган таклифларни кўриб чиқиб, тегишли қарорлар қабул қилади;

таълим-тарбия, талабаларнинг бандлиги таъминланганлиги каби кўрсаткичлар асосида олий таълим муассасалари ректорлари, проректорлари, филиал директорлари, директор ўринбосарларининг рейтингини аниқлайди;

**ҳар ойда** олий таълим муассасалари ректорлари ва бошқа масъул раҳбарларнинг ҳисоботларини эшитиб, улар фаолиятига баҳо бериб боради.

б) **Ҳудудий комиссиялар:**

жойлардаги мавжуд бўш иш ўринларини таҳлил қилиб, уларга тегишли ҳудуддаги олий таълим муассасалари **1–3-курс** талабаларининг камида **30-40 фоизини** ишга жойлаш бўйича манзилли чора-тадбирларни амалга оширади;

ҳудудда фаолият кўрсатаётган ташкилотлар (иш берувчилар) билан ҳамкорликда олий таълим муассасалари **битирувчи курс** талабаларининг келгусидаги иш жойини белгилаб олиб, уларни ҳақ тўланадиган **3-4 ойлик стажировка** (амалиёт)га юборишни тизимли ташкил этади;



**2022 йил 1 апрелдан бошлаб** иш берувчилар билан ҳамкорликда олий таълим муассасаларида талабалар учун мунтазам равишда вакансия ва амалиёт ярмаркалари ҳамда бизнес учрашувларини ташкил этиб боради;

**ҳар йили 20 декабрга қадар** олий таълим муассасалари кесимида келгуси календарь йили учун талабалар бандлигини таъминлаш чора-тадбирлари бўйича йиллик дастурни тасдиқлайди ва **бир ойда камида бир марта** унинг бажарилишини муҳокама қилиб боради;

қўшимча даромадга муҳтож талабаларни мавсумий ишларга жалб қилган ҳолда, шу жумладан “қурилиш отрядлари”ни ташкил этиб, уларнинг бандлигини таъминлаш чораларини кўради;

**ҳар ойда** талабаларнинг ижтимоий шароитини яхшилаш ва бандлигини таъминлаш бўйича амалга оширилаётган ишлар ва уларнинг натижалари юзасидан **Республика комиссиясига ахборот киритиб боради.**

**3. Ҳудудий комиссиялар** Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (А.Тошқулов) билан биргаликда:

**ўн беш кун** муддатда **ҳар бир олий таълим муассасаси ректори (филиал директори)** томонидан ҳар бир талаба билан суҳбатлашган ҳолда уларнинг бандлигини таъминлаш бўйича Республика комиссиясига Кафолат хати киритилишини таъминласин;

**бир ой** муддатда олий таълим муассасалари кесимида **“талабалар баланси”**ни аниқласин;

**икки ой** муддатда ҳар бир олий таълим муассасаси кесимида талабаларнинг бандлигини таъминлаш бўйича **йиллик иш режаларини** тасдиқласин;

олий таълим муассасалари ва ҳудуддаги йирик компаниялар, кластерлар ҳамда бошқа корхоналар ўртасида амалий ҳамкорлик тизимини яратиб, **йил якунига қадар 10 минг нафар** талабанинг бандлигини таъминлаш чораларини кўрсин.

**4. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (А.Тошқулов) Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги (Н.Хусанов),** тизимида олий таълим муассасалари бўлган вазирлик ва идоралар, олий таълим муассасалари билан биргаликда:

**уч ой муддатда** олий таълим муассасаларида **“Коворкинг офислари”** фаолиятини ташкил этсин;

**икки ҳафта** муддатда олий таълим муассасаларидаги бошқарув, техник, хизмат кўрсатувчи ва ўқув-ёрдамчи лавозимлари бўйича мавжуд вақант жойларга талабаларни қабул қилиш бўйича шаффоф тизимни йўлга қўйиб, бу орқали **йил якунига қадар 3 мингдан зиёд** талабанинг бандлигини таъминлаш чораларини кўрсин. Бунда, истисно тариқасида, ректорларга талабаларнинг билим ва салоҳиятидан келиб чиқиб, тегишли лавозимларга ишга қабул қилишга рухсат берилсин.




17. Ички ишлар вазирлиги (П.Бобожонов) Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси Б.Исломов, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (А.Тошқулов) билан биргаликда **бир ой** муддатда талабалар ўртасида содир этилаётган жиноятчилик ва ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг келиб чиқиш сабабларини пухта таҳлил қилиб, уларнинг олдини олишга қаратилган аниқ чора-тадбирларни белгиласин ва Республика комиссиясига таклиф киритсин.

18. Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси А.Абдувахитов, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (А.Тошқулов) **икки ҳафта** муддатда республика олий таълим муассасалари талабаларининг бандлигини таъминлаш ва бўш вақтини мазмунли ташкил этиш юзасидан **қарор лойиҳасини** киритсин.

19. Мазкур баён ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси А.А.Абдувахитов зиммасига ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг Таълим, соғлиқни сақлаш ва спорт масалалари қотибиятига юклансин.


Ўзбекистон Республикасининг  
Бош вазири



А. Арипов

2022 йил “07” март

Ўзбекистон Республикаси  
Президенти  
Администрацияси раҳбари



З. Низомиддинов

2022 йил “07” март